

KELEJAGIMIZ EGALARI HISOBLANMISH BOLALAR – QONUN HIMOYASIDA

D. M. Ergashev

AndDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6722516>

Abstract.

Yosh avlodlarimizni har tomonlama yetuk, biz boshlagan ulugʻ ishlarni munosib davomchilari etib tarbiyalash, oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifamizdir.

Shavkat Mirziyoyev

Har bir davr, har bir mamalakat va xalqlarda millat kelajagi boʻlgan yoshlar tarbiyasi doimo dolzarb sanalgan va ularni barkamol shaxs boʻlib shakllanishlari uchun barcha shart – sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda ham butun dunyoda bolalarni har tomonlama sogʻlom voyaga yetishi, intellektual salohiyati yuqori darajada rivojlanishini taʼminlanish maqsadida bir qancha qonun va qarorlar qabul qilinga. Bunga 1924-yilda Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi, 1959-yil Bola huquqlari deklaratsiyasi, 1989-yil 20-noyabrda “Bola huquqlari toʻgʻrisida” gi konvensiya va boshqa hujjatlar qabul qilinganini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Bola huquqlari deklaratsiyasiga muvofiq ravishta “Bola huquqlari toʻgʻrisida” gi konvensiyada quyidagilar koʻrib chiqilgan:

- jahondagi barcha davlatlarda nihoyatda ogʻir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida eʼtiborga muhtoj ekanliklari eʼtirof etiladi ;
- bolalarni himoya qilinishi va uygʻun ravishta rivojlanishi uchun har bir xalqning anʼanalari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishi hisobga olinadi ;
- har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligiga eʼtibor beriladi.

Masalan, konvensiyaning 1 – moddasiga koʻra, “ 18 yoshga toʻlmagan har bir inson zoti, bolaga nisbatan qoʻllanilayotgan qonun boʻyicha, agar u ertaroq balogʻatga yetmagan boʻlsa, bola hisoblanadi ” – deyilgan. Bunga koʻra, balogʻatga yetmagan har bir yosh bola hisoblanadi va bular uchun koʻzda tutilgan barcha huquqlarni hech qanday kamchiliklarsiz irqi, dini, tana rangi, jinsi, tili, siyosiy yoki boshqa eʼtiqodlari, milliy etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sogʻligi va tugʻilishi, uning onasi qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-bir holatlardan qatʼi nazar, hurmat qilinishi va huquqlari taʼminlanishi kerak.

Konvensiya 54 modda va 8 qismdan iborat bo'lib, ushbu moddalar quyidagi huquqlarda o'z ifodasini topgan:

- yashash huquqi ;
- rivojlanish huquqi ;
- himoyalaniş huquqi ;
- ishtirok etish huquqi.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqlar bolaning talablarini qondirish, tibbiy xizmatdan foydalana olish, qobiliyatini kengroq rivojlantirish, zo'ravonliklar va qiynoqlarga, majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik, o'z fikr – mulohazlarini aytishda erkin bo'lish huquqlarini belgilaydi.

Shuningdek, 2002-yil may oyida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Bolalar masalalari bo'yicha maxsus sessiyasida bolalarning dunyoqarashlari ifoda etilgan bo'lib, unda 7000 ishtirokchidan 600 nafarini bolalar tashkil etgan bo'lib, bolalar forumini ifoda etish imkoniyati bergan edi. Buning natijasida davlat rahbarlari “Bolalarga maqbul dunyo” yaratish majburiyatini olgan edilar.

“Bolalarga maqbul dunyo” bolalar salomatligi, ta'limi va himoyasini, huquqlarini ta'minlash bo'yicha maqsad – vazifalarni hamda ularni amalga oshirishni belgilaydi. YUNISEFning O'zbekistondagi faoliyati bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, quyidagi huquqlarni amalga oshirishga yordam beradi.

- yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, xususan, onalar salomatligi, bolalar o'limini qisqartirish;
 - yuqori sifatli ta'lim olish;
 - bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tgazish va hordiq chiqarish huquqi;
 - o'z fikr – mulohazlarini erkin ifoda etish huquqi;
 - jinsi, dini, irqidan qat'i nazar, hamma uchun teng imkoniyatga ega bo'lish huquqi.
- YUNISEF ushbu maqsadlarga erishish yo'lida O'zbekiston Respublikasi hukumati, fuqorolik jamiyati instituti vakillari bilan bevosita hamkorlik qilmoqda. Mamlakatimiz 1992-yilda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan va O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatari to'g'risida”gi Qonuni ota – ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashga topshirishning muqobil ko'rinishlari bo'yicha ko'plab aniq tadbirlar ushbu hamkorlikning muayyan natijalaridan biridir. Barchamizga ma'lum, butun dunyo bo'ylab har yilning 1 – iyuni « Xalqaro bolalar kuni » sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram ko'pchilik davlatlarda « Xalqaro bolalar huquqlarini ximoya qilish kuni » deb ham e'tirof etiladi. Qiziq, xalqaro bolalar kuni nega aynan 1 – iyunda nishonlanadi ?. Bu borada bir qancha farazlar mavjud. Xususan, ilk marta mazkur kunni nishonlash

g'oyasi 1925-yili Jenevada bolalar farovonligiga bag'ishlangan Butunjaxon konferensiyasida ilgari surilgan. Ushbu konferensiya o'tgazilish sanasi aynan 1 – iyun kuniga to'g'ri kelgan. Xalqaro bolalar kuni ilk marotaba 1950-yil 1 – iyunda nishonlangan edi. Ushbu kun uchun maxsus bayroq ham ishlab chiqilgan. Mazkur bayroq o'zining ramziy ma'nosiga ega ya'ni, orqa fondagi yashil rang yuksalish, beg'uborlik, farovonlik ramzi hisoblansa, markazdagi yer shari va uning atrofidagi qizil, ko'k, sariq va qora ranglar dunyoning istalgan burchagida bolalar irqi, millatidan qat'i nazar teng ekanligini ifodalaydi. Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, ko'z oldimizga « Bola huquqlari to'g'risida » gi konvensiya ko'z oldimizda gavdalanadi. Mazkur konventsia Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25 – qarori bilan qabul qilingan hamda 1990-yil 2-sentyabrda 49 – moddaga muvofiq kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konventsiyaga Respublika Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi qaroriga muvofiq qo'shildi va mazkur qonun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning katta qismini yoshlar tashkil qilgani uchun bola huquqlarini ta'minlash va ularni huquqlarini himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan xisoblanadi. Va shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillaridan, to shu kungacha bola huquqlariga doir 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bolalar huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid 38 ta xalqaro hujjatlarning ishtirokchisidir. Bularning barchasi mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlashga, farzandlarimizning baxtli hayot qo'ynida yashashiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O'zbekiston» nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2018. III bo'lim “Jamiyat va shaxs”, XIV bob, “Oila”, 64 – modda, 22 bet
2. Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». «Ma'naviyat». Toshkent 2008. 40,41 betlar
3. “Bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari: Xalqaro andozalar va milliy qonunchilik”. «O'zbekiston». Toshkent 2010
4. 2017.09.20 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilinishini taklif qilish” to'g'risida BMT minbarida so'zlagan nutqi.
5. 23.04.2019 “ Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.